



“MADANIYAT”, “MA’NAVIYAT”, “MAFKURA” TUSHUNCHALARI, TAHLILLAR VA ILMIY TALQINLAR

Xonimov Sharofutdin Bahodirovich

*O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
markaziy apparati bo‘lim boshlig‘i
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “madaniyat”, “ma’naviyat”, “mafkura” tushunchalari to‘g‘risida alohida adabiyotlarga tayangan holdagi to‘g‘ri va aniq ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda “madaniyat”, “ma’naviyat” va “mafkura” tushunchalarining har birini tahlil qilib misollar bilan aniq va batafsilroq yozib chiqilgan. Shuningdek, mazkur tushunchalar xususida ilmiy talqinlar misollar bilan keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Madaniyat, mafkura, ma’naviyat, yangi O‘zbekiston, respublika, milliy, siyosatchi, tarix.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki davrdan jamiyatda ma’naviy tiklanish, milliy o‘z-o‘zini anglash, va kommunistik mafkuradan voz kechishning yangi mexanizmlarini yaratish bo‘yicha tarixchilar, siyosatchilar va faylasuflar bu jarayonlarning ilmiy asoslarini yaratishga harakat qilganlar. Ma’naviy tiklanishning muhim tarkibiy qismi madaniy faoliyat bo‘lib, u insoniyatning ma’naviy-estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Shu boisdan aholining ma’naviy-estetik ehtiyojlarini qondira olishi uchun qulay sharoit yaratish, xususan, madaniy tadbir o‘tkazish, ijodkorlarni va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va shu kabilar aynan madaniyat tashkilotlarining vazifasidir.

Bizga ma’lumki, sobiq sho‘rolar davrida e‘lon qilingan ilmiy va badiiy adabiyotlarda “ma’naviyat” madaniyat tushunchasining ajralmas bo‘lagi sifatida tahlil qilinib kelingan.

Madaniyat bu — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi sanaladi. “Madaniyat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “shaharlik”, “shaharga oid” bo‘lsa, uning ma’naviy izohi “odob-axloq”ni anglatadi. Demak, bugun Yangi O‘zbekistonni yaratishda milliy madaniyatni, ma’naviyatni yanada rivojlantirish g‘oyat muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda: “Biz Yangi O‘zbekistonni yetuk ma’naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim.

Faqat jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan kamol toptirish g‘oyat murakkab vazifa. Ayniqsa, bugungi kunda - mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus



olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega”¹.

O‘zbekiston mustaqilligining tajribasi ma’naviy sohada olib borilgan siyosatning haqqoniy va hayotiy, samarali va davomiy ekanini batamom tasdiqladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi suverenitetligini to‘la ta’minlaydigan, xalqimiz va millatimizni yakdil qila oladigan milliy mafkuraning mazmuni, mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, amalga oshirilish masalalari bo‘yicha mamlakatimizda, majlislarda, yig‘inlarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda, ommaviy axborot vositalarida qizg‘in muhokama qilingan edi. Milliy mafkura xususida iqtidorli olimlar, iste’dodli shoir va yozuvchilar, yetuk jamiyatshunoslar, ziyolilar, rahbar xodimlar o‘zlarining qimmatli fikr mulohazalarini bayon etganlar. Bugungi kunda milliy mafkuramiz shakllandi va tobora rivojlanib bormoqda. Ana shu eng muhim g‘oyalarni chuqur idrok etish, o‘rganish, ulardan amaliyotda foydalanish foydadan holi emas.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani uzluksiz rivojlantirishimiz zarur.

Sir emaski, hozirgi vaqtda aksariyat odamlar “mafkura” degan so‘zga biroz hadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona deb hisoblaydi. Lekin biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Shu munosabat bilan ta’kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekiston mafkurasini avvalo insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasini bo‘ladi.

O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy g‘oya va ma’naviy yangilanish yo‘nalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi»².

Afsuski, yoshlar bilan ishlash va ularni barkamol avlod qilib tarbiyalash sohasida olib borilayotgan muayyan ishlar bilan birga, bir qator muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda.

“Mafkura – jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlar, ijtimoiy-siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, falsafiy qarashlarining tizimlashtirilgan bilimlar yig‘indisidan tashkil topadi”³.

“Mafkura muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad – muddaolarini, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalar tizimidir”⁴.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021, 274 - b.

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. –B. 292-293.

³ Tulenov J, Yusupov K, G‘afurov Z. Istiqloq va taraqqiyot mafkurasini: maqsad va yo‘nalishlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993, - B. 12.

⁴ Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –Toshkent: O‘zbekiston, 2001, 9-bet.



“Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma’naviy tamoyillarini ifoda etadigan g’oyalalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir”⁵.

“Mafkura (arab – fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlarini, orzu-istak va maqsad – muddaolari ifodalangan g’oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi”⁶.

Ularning barchasida mafkura jamiyatdagi muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifodalovchi ijtimoiy kuchlar va qatlamlarning o’tmishi, bugungi kuni va istiqboli o’zida mujassamlashtiradi degan g’oya markaziy ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, fikrlar asosida g’oyalalar, g’oyalalar asosida esa mafkura shakllanadi. Ya’ni, inson muayyan maqsadni mo’ljallab, uni nazariy jihatdan asoslansa va unga ko’pchilikni ishonтира, u g’oyaga aylanadi. Shuning uchun g’oya – ma’lum bir maqsad bo’lsa, mafkura uni amalga oshirish usuli va vositasidir. Boshqacha aytganda, inson yoki millatning asosiy maqsadlari g’oyalarda namoyon bo’lsa, uni ro’yobga chiqarishga qaratilgan g’oyalalar majmuasi mafkurani tashkil qiladi.

Tor ma’noda mafkura mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning umumiy muddaolarini ifodalovchi va ularning boshini biriktirib, jipslashtirib, bitta asosiy maqsadga, ya’ni davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashga undaydigan milliy istiqbol haqidagi g’oyalalar, bilimlar yig’indisini tashkil etadi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki g’oya nisbatan turg’un, qat’iy, mafkura esa dinamik xarakterga ega. Demak, mafkura – g’oyaning manfaatlashgan mazmuni, shakli, qismi, tomoni, ko’rinishi, qiyofasi va xarakteridir. Ayni paytda, mafkuraning amal qilishida odamlarning undagi g’oyalarga bo’lgan ishonch – e’tiqodi muhim o’rin tutadi. Bu holda mafkurani tavsiflovchi asosiy omillar: a) kishilarning talab, ehtiyoj – manfaatlarini va ularni qondirish usul – vosita, mexanizmlari; b) g’oyalarga bo’lgan ishonch – e’tiqodning namoyon bo’lishidir⁷.

Jamiyat hayotida nodemokratik tamoyillar ustuvor bo’lgan sharoitda milliy o’zlikni anglash emas, aksincha, millatni o’zligidan begonalashtirish holati sodir bo’lgan. Sobiq sho’rolar davrida “millatlarning bir-biriga yaqinlashuvi va qo’shib ketishi” siyosati olib borildi. Natijada turli millatlar ma’naviy-mafkuraviy hayotida milliy o’zlikdan begonalashuv jarayoni ro’y berdi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-tarixiy meros bugungi kunda butun dunyoda mashhur va boy ma’naviy-madaniy xazinalardan sanaladi. Xalqimizning mana shunday merosining shakllanishiga munosib hissasini qo’shgan buyuk allomalarimizdan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom

⁵ Milliy istiqbol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (oliy ta’lim muassasalari uchun qo’llanma). Toshkent “Yangi asr avlodi”, 2001, 31-bet.

⁶ Falsafa qomusiy lug’at. Toshkent. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004, 244-bet.

⁷ Mamashokirov S., Tog’ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g’oyaviy-mafkuraviy masalalari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2007, 10-bet.



Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning ko'p qirrali ijodida xalqlar turmush tarzi, e'tiqodi, urf-odat va an'analari, ruhiyati, o'zligini anglashiga oid diqqatga sazovor fikrlarni uchratish mumkin. Shunday buyuk allomalardan biri Abu Nasr Forobiydir. U o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida yozishicha, odamlardagi ruhiy birlik, ya'ni odamlar orasidagi muayyan bog'lanish, birinchidan, ular o'rtasidagi mehr-oqibat kelishuviga asoslanadi, uning zamirida qabila, urug' munosabatlari yotadi, chunki ular bir ajdoddan tarqalgan⁸. Ikkinchidan, odamlar o'rtasidagi ruhiy bog'lanish ularning xulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiylikka tayanadi. Allomaning xalqlarning o'ziga xos jihatlari haqidagi fikrlari muayyan xalqlardagi o'ziga xos ruhiy xususiyatlarni va o'zligini tushunib yetishga xizmat qiladi.

Milliy o'zlikni anglash rivojida milliy tilning o'rni beqiyos ahamiyatga egadir. Millat aloqa vositasi sifatida o'z milliy tilida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'shib boradi va bu jarayon milliy o'zlikni anglashning o'sishiga imkon yaratadi. Milliy davlatchilik elementlari ushbu milliy tilning rasmiy mohiyati bilan mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik tufayli mafkura, milliy g'oya va milliy o'zlikni anglash munosabati yangicha asosga ega bo'ldi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushunchadir⁹. Shuningdek, uni ikki darajada o'zining ifodasini topishini ta'kidlash lozim. Ya'ni, milliy o'zlikni anglash:

- 1) muayyan millatga mansublikni;
- 2) muayyan mamlakatga, davlatga mansublikni ham anglatadi.

Shu o'rinda, milliy o'zlikni anglash darajasi fuqarolarni o'z-o'zini his etishi va fuqaro sifatida oqilona munosabatda bo'lishini tashkil etadi. "Milliy o'zlikni anglash" tushunchasi, shu ma'noda unga mos keladi.

Madaniy o'ziga xos jihatlarni anglash millatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu holat bizning fikrimizcha, millatlarning yaqinlashuvi, hamkorlik qilishi, umumiylikka intilishini ta'minlaydi.

Milliy o'zlikni anglashning shakllanishi bilan etnogenetik rivojlanish bir-birlariga dialektik bog'liq hodisalar bo'lsa-da, ular bir davrda yuzaga kelmaydi. Turli xalq, millat va elatlarning etnogenetik shakllanish jarayoni ularning milliy o'zligini anglashidan oldin boshlangan va uning rivojlanishi millat shakllanganidan keyin ham davom etmoqda.

Milliy o'zlikni anglash etnogenez ichida kechadi, u etnogenetik rivojlanish jarayonida kishilar ongini umummilliy, umumxalq manfaatlarini anglash, sezish, bilish

⁸ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B.72

⁹ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Qayta ishlangan yangi nashri. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 2016. – B. 406.



va o'z xatti-harakatlarini ushbu manfaatlar bilan uyg'unlashtirib borishga yo'naltiradi. Ushbu fikr bugungi kun uchun yangicha ma'noga ega. O'zlikni anglash shaxsning o'zini haqiqiy inson, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishi jarayonida shakllanadi.

Mamlakatimizda erkin, huquqiy-demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash, milliy g'oyani jamiyatimiz a'zolari ongiga singdirishda madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni beqiyosdir. Ushbu tashkilotlar orqali milliy g'oyada ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan qadriyatlar targ'ibotiga e'tibor qaratish, ushbu jihat xalqimizning milliy o'zligini anglab, mustaqilligini mustahkamlash ishiga kamarbasta bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, g'oya, ya'ni maqsad amaliyotdan ilgari yuradi. Avval muayyan g'oya jamiyat a'zolarining umumiy maqsadi sifatida ilgari surilib, so'ng ushbu maqsadni amalga oshirish uchun faoliyat boshlanadi.

Milliy mafkura mamlakatda barqarorlik, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'la oladigan ulug' omil hisoblanadi. Shu ma'noda, shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda milliy g'oya bilan milliy o'zlikni anglash o'zaro aloqadordir. Lekin, ular bir xil tushunchalar va omillar emas, ularning milliy rivojlanishdagi vazifalari ham turlicha. Ular o'rtasidagi o'ziga xoslik quyidagilardan iborat:

Birinchidan, milliy g'oya milliy tafakkur, ong, tarixiy xotira, meros, milliy manfaat, maqsad va o'ziga xoslik zaminida shakllanadi va rivojlanadi. Milliy o'zlikni anglash esa ularni o'zlashtirish ehtiyojining ifodasidir. Ayni paytda milliy g'oya milliy o'zlikni anglashning asosiy manbasi sanaladi.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash milliy g'oya moddiylashuvining ko'rinishidir. Millat mavjud ekan, milliy g'oya unga o'ziga xoslik baxsh etib turadi, uning maqsadi va manfaatlarini o'zida aks ettiradi.

U shaxsni O'zbekistonga, uning kelajagiga, Vatanga bo'lgan umumiy daxldorlikni his etish madaniyatini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Mafkura, milliy g'oya va milliy o'zlikni anglashning obyektini hamda subyektini insondir. Ularni inson o'zining ongi, tafakkuri va intellektual salohiyati bilan shakllantiradi. Ayni paytda, ular insonning ma'nan yuksalib, shaxs darajasida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotda "shaxs ma'naviyati" haqida fikr yuritishdan asosiy maqsad bunda eng avvalo "shaxs" kim va uning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi? – degan masalaga e'tibor qaratiladi.

"Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati"da, shaxs ma'naviyati – har bir kishining o'zini insoniyat farzandi, muayyan millat vakili, davlat fuqarosi deb bilgan holda o'z Vatani tuprog'i, suvi, havosi – jamiki boyliklarini asrash, uning obodligi, ravnaqi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish yo'lida chin vijdon,



imon, e'tiqod, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmui¹⁰ dir, deb ta'rif berilgan.

Shaxsning o'ziga xos jihati shundaki, u umumnazariy ong va tafakkurga egadir. U shaxs bo'lib, dunyoga kelmaydi, balki u jamiyatda shakllanadi. Ayni paytda, jamiyatda yuksak ma'naviy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxslar qancha ko'p bo'lsa, u taraqqiy qilib boradi. Ongi, dunyoqarashi va tafakkuri milliy g'oyadan bahra olib shakllangan inson, ma'naviyati yuksalgan, milliy o'zligini anglagan shaxs darajasiga ko'tariladi. Agar shaxsni millat vakili sifatidagi maqomida baho berilganda o'z millati, xalqi va Vatanning manfaatlariga bo'ladigan munosabatlaridan kelib chiqish o'ta muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shu ma'noda bugungi insonlarning shaxs darajasiga ko'tarilishining asosiy mezonini o'z manfaatlarini milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirganligida namoyon bo'ladi. Bu fazilatlarga ega bo'lgan shaxs, o'zini u yoki millatning vakili ekanligini, uning buguni, ertangi kuni va istiqboli uchun mas'ul ekanligini his etadi. Unda o'z Vatani, xalqining manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishni farzandlik burchi deb hisoblaydi, uning boyliklarini ko'z-qorachig'iday asraydi. Shu tariqa, milliy g'oya va milliy o'zlikni moddiy kuchga aylanishi millatning vakili bo'lgan shaxslar ma'naviyatida o'z ifodasini topadi.

Madaniy-mafkuraviy omillar tufayli ta'lim sohasi tubdan yangilandi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash tizimi yaratildi, ilm-fan rivojlandi, san'atimiz jahon sahnasiga chiqdi, sport elimizni dunyoga tanitdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, madaniy-mafkuraviy omillar jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini bir maromda ta'minlab turuvchi "qon tomiri" degan konseptual g'oya ilgari surilmoqda. Zero, ma'naviyati qashshoq insonda ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amal ham bo'lmaydi. O'z milliy mafkurasiga va milliy qadriyatlariga ega bo'lmagan mamlakat ertami kechmi inqirozga mahkumdir. Demak, madaniyat va mafkura jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor omil hisoblanadi. U jamiyat ijtimoiy tuzilmasini bir-biri bilan bog'lab turadi, ular o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unlikda rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Jamiyatdagi madaniyat va mafkura inqirozi yoki davr taraqqiyotining ehtiyojlaridan orqada qolishi jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining izdan chiqishiga yoxud unda mavjud bo'lgan institutlar o'rtasidagi munosabatlarda ixtiloflarni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Qayta ishlangan yangi nashri. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr, 2016. – B. 213.

¹⁰ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Qayta ishlangan yangi nashri. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr, 2016. – B. 213.



2. Mamashokirov S., Tog'ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2007, 10-bet.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B.72
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. –B. 292-293.
5. Tulenov J, Yusupov K, G'afurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo'nalishlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1993, - B. 12.
6. Рахмонова Г. Ахлоқ–шахс тараққиётининг юқори маънавий пойдевори //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 2. – с. 160-165.